

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
Rektori D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

**ILMIY PEDAGOGIK ISH
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	600 000 – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim sohasi:	610 000 – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
Mutaxassislik:	70610105 -Ta’limda axborot texnologiyalari

Qo‘qon – 2025

Fan/modul kodi IPI112308		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS-Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim turi O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Ilmiy pedagogik ish	60		60	120
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad – Magistrantlarda ilmiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish, zamonaviy pedagogik metodlarni o‘zlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda ilmiy-pedagogik tajriba asosida mustaqil ishlash kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi: –ilmiy-pedagogik ishning normativ-huquqiy asoslari bilan tanishtirish, talabalarda ilmiy-pedagogik faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ta’lim jarayonini loyihalashni o‘rgatish magistratura bosqichi talabalarining pedagogik faoliyatga tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish. II. Asosiy nazariy qism(ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I Fan tarkibiga quydagi mavzular kiradi: 1. Ilmiy-pedagogik faoliyatning huquqiy asoslari 2. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartida ilmiy-pedagogik amaliyotning asosiy yo‘nalishlari 3. Magistratura talabasining tayyorgarligiga qo‘yiladigan malaka talablari 4. Pedagogik faoliyat va unga qo‘yilgan talablar 5. Magistratura talabasini dars o‘tishga tayyorlash 6. Informatika ta’limi jarayonida innovatsion pedagogik faoliyatni amalga oshirish 7. Magistratura talabasini kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashish 8. Magistratura talabasini loyihalash faoliyatiga o‘rgatish 9. Magistratura talabasini yoshlar va jamoatchilik bilan ishlashga o‘rgatish				

10. Innovatsion pedagogik faoliyatni loyihalashtirishning ilmiy pedagogik asoslari
11. Pedagogik faoliyatda AKTdan foydalanish
12. Pedagogik loyihalarni baholash
13. Magistratura talabasini ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash bo'yicha xorijiy tajriba
14. Innovatsion pedagogik faoliyatni loyihalashtirishning ilmiy pedagogik asoslari
15. Ilmiy-pedagogik faoliyatda istiqbolli yo'nalishlar

Ma'ruza mashg'ulotlari texnik qurilmalar bilan jixozlangan auditoriyada akadem guruhlar oqimi uchun o'tkaziladi. Fanning sohalardagi imkoniyatlari va ularning jamiyatdagi o'rne, o'quv faoliyatlariga oid axborotlarni olish imkoniyati va o'qitish yuzasidan umumiy tavsiyalar berib boriladi. Ma'ruza mashg'ulotlari innovatsion, pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar orqali qo'llanilib o'tiladi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Normativ hujjatlar tahlili
2. Malaka talablarini shakilantirish
3. Dars o'tishga tayorlanish va dars o'tish metodologiyalari
4. Magistratura talabasini kasbiy rivojlanishi
5. Innovatsion pedagogik faoliyatni amalga oshirish
6. O'quv maqsadi va natijalarini loyihalashtirish
7. Zamonaviy dars metodlari amaliyoti
8. Ma'ruza matni va taqdimot tayyorlash
9. AKTdan foydalangan holda ta'limiy loyihalar ishlab chiqish
10. Pedagogik tajriba darsini tashkil etish
11. Zamonaviy dars metodlari amaliyoti
12. Ilmiy-pedagogik ishda innovatsion yondashuvlar
13. Ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash bo'yicha xorijiy tajriba tahlili
14. Ilmiy-pedagogik ishda innovatsiyalar va uni pedagogik jarayonga tadbiq'i
15. Ilmiy-pedagogik ishda istiqbolli yondashuvlar va ularni amaliyotga kiritish usullari

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar sonli usullar va dasturlash fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini dasturlash vositalarida amaliy qo'llash bilan mustahkamlash va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash orqali bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

IV. Seminar mashg'ulotlari

Seminar mashg'ulotlari namunaviy o'quv rejasida rejalashtirilmagan.

V. Mustaqil ta'lim bo'yicha tavsiyalar

Talaba mustaqil ta'limning asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligida va nazorati ostida talabada muayyan o'quv materiallarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Talabalarga mustaqil ta'lim tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

mustaqil ravishda darslik, o'quv qo'llanmalar va metodik qo'llanmalarda belgilab berilgan mavzularni o'rganish;

tarqatma materiallar bo'yicha auditoriyada o'rganilgan ma'ruza qismlarini o'zlashtirish;

axborot texnologiyalaridan foydalanib, nazorat tizimlari bilan ishlash;

maxsus adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlari bilan ishlash;

zamonaviy texnologiyalarni o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish usullarini o'rganish;

mustaqil ta'limni tashkil etishda internet va axborot manbalaridan doimiy foydalanish.

Talabalarga mustaqil ta'lim tayyorlashda mavzularning nazariy asoslarini mukammal o'rganishi, tahlil qilishi, qiyosiy taqqoslashiga mo'ljallangan vazifalar, ayrim jihatlarini chuqur egallashga qaratilgan topshiriqlar, olgan bilimlarni amalda tatbiq etishga doir vazifalar beriladi.

Mustaqil ta'lim har bir ma'ruza mavzusi asosida tashkil etiladi. Mustaqil ta'lim natijasi sifatida talabalar bajargan ijodiy ishlarini (elektron va qog'oz ko'rinishida) o'qituvchiga topshiradilar, ba'zi mavzular bo'yicha referatlar tayyorlashadilar.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari

1. Magistratura bosqichida ilmiy-pedagogik faoliyatning huquqiy asoslari.
2. "Magistratura to'g'risida"gi nizomning mazmuni va ahamiyati.
3. Ilmiy-pedagogik faoliyatning davlat ta'lim standartlaridagi o'rni.
4. Ilmiy-pedagogik ishning asosiy tarkibiy qismlari.
5. Oliy ta'limda ilmiy-tadqiqot amaliyotining asosiy yo'nalishlari.
6. Ilmiy-pedagogik faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.
7. Magistrantning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bosqichlari.

	8. Oliy ta'lim muassasasida professor-o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan ilmiy-pedagogik ishlar. 9. Pedagogik faoliyatda loyiha metodining nazariy asoslari. 10. Magistrantlarni loyiha faoliyatiga o'rgatishning afzalliklari. 11. Loyiha faoliyatida ijodkorlik va kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish. 12. Pedagogik faoliyatda refleksiv yondashuvning ahamiyati. 13. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi va uni rivojlantirish omillari. 14. Ilmiy-pedagogik ishda metodologik yondashuvlar. 15. Ilmiy-pedagogik faoliyatda motivatsiya va tashabbusni rivojlantirish. 16. O'qituvchilarning metodik hamkorlik faoliyati va uni baholash. 17. Ta'lim oluvchilar shaxsiy xususiyatlariga mos pedagogik texnologiyalar. 18. Magistratura bosqichida ilmiy maqola va tezis yozish metodikasi. 19. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bosqichlari. 20. Oliy ta'limda ilmiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishda xorijiy tajriba. 21. AQSh va Yevropa mamlakatlarida magistratura tizimida pedagogik tayyorgarlik. 22. MDH mamlakatlarida magistrantlarning ilmiy-pedagogik faoliyat tajribasi. 23. O'zbekiston magistraturasida ilmiy-pedagogik faoliyatning xususiyatlari. 24. Ilmiy-pedagogik ishda ta'limiy dasturlarni loyihalash. 25. Pedagogik faoliyatda monitoring va nazoratning metodik asoslari. 26. O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi hamkorlikning pedagogik jihatlari. 27. Magistrantlarning ilmiy-pedagogik ishini baholash mezonlari. 28. Oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari va ularning o'ri. 29. Ilmiy-pedagogik faoliyatda tahlil va prognozlash metodlari. 30. Magistratura bosqichida ilmiy va pedagogik faoliyatning integratsiyasi.
3.	VII. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda, pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi, o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etishga doir kompetensiya va ko'nikmalarni hosil qilishi lozim; Oliy ta'limning davlat ta'lim standartida keltirilgan ilmiy-pedagogik amaliyot, birinchidan, magistratura talabasi zamonaviy pedagogik va

	axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalanishni o'zlashtirishi kerak; ilmiy-pedagogik ish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullarini qo'llay oladigan pedagogik faoliyat mahoratini va ko'nikmalarini shakllantirishi lozim. ilmiy-pedagogik ish davomida o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etishga doir kompetensiya va ko'nikmalarni hosil qilishi zarur.
4.	VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: Ma'ruzalar, interfaol keys-stadilar, seminarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javob), guruhlarda ishlash, taqdimotlar qilish, individual loyihalar, jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	IX. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid ilmiy-nazariy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, egallagan nazariy bilimlarni amalda qo'llash va natijalarni to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan fan doirasida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa hamda topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Robinson T.E., Hope W.C. Teaching in higher education: Is there a need for training in pedagogy in graduate degree programs? // Research in Higher Education Journal, 2013, №21. 2. Schlieb J. Review: Histories of pedagogy. College English, 1999, 61(4), 139-146. 3. Shirani Bidabadi N, Nasr Isfahani A, Rouhollahi A, Khalili R. Effective Teaching Methods in Higher Education: Requirements and Barriers. J Adv Med Educ Prof. 2016 Oct;4(4):170-178. 4. Ananeva T. 10 klyuchevix kompetensiy dvadsat pervogo veka: chemu uchit i chemu uchitsya?// http://tananyeva.com/10-klyuchevyh-kompetentsij-dvadsat-pervogo-veka-chemu-uchit-i-chemu-uchitsya/ 5. Jo'raev A. Dasturlashtirilgan ta'lim vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya – B., 2019. – B. 30. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Magistratura to'g'risida Nizom//https://lex.uz/docs/2579469 2. Mahmudov M. Ta'limni didaktik loyihalashning nazariy asos- lari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya – T., 2004. – B. 16-17. 3. Ma'murov B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi.

	Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – T., 2018. – B. 18. 4. Rasulov I. Talabalarning loyihalash madaniyatini kompyuter texnologiyalari vositasida rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yi- cha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – T., 2018. -B. 13. Axborot manbalari: 1. https://softcatalog.info/ru/ 2. https://rlab.ru 3. https://ziyonet.uz 4. https://dicom.spb.ru
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti Aniq fanlar va muhandislik fakulteti Raqamli texnologiya va suniyintelekt kafedrasining 2025-yil ____-avgustdagi ____-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va fakultet kengashiga kiritilgan. Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti Aniq fanlar va muhandislik fakulteti Kengashining 2025-yil ____-avgustdagi ____-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va institut Kengashiga tasdiqlash uchun kiritgan. Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti Kengashining 2025-yil ____-avgustdagi ____-sonli yeg‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas’ullar: 1. Xanbabayev Xakimjon Ikramovich – Qo‘qon DU, Raqamli texnologiya va suniy intellekt kafedrasining professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)
9.	Taqrizchi: Siddiqov Ilxomjon Meliqo'ziyevich – Qo‘qon DU, Raqamli texnologiya va suniy intellekt kafedrasining professori v.b., t.f.n